

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни “**БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ**” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир ҳайъати ва аъзолари:

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Носиров Ш.Ў– Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хуносалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгардир*

O'ZBEKISTON-TURKIYA: TARIXAN TARKIB TOPGAN ALOQALAR.

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasini

dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Shuxrat Yodgorovich Qudratov

Buxoro Davlat Universiteti

talabasi Rashidov Xurshid.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng juda keng imkoniyatlarga ega bo'ldi. Yangi davr, ulkan o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi taqdirida tub burilishlarni amalga oshirdi. Dunyoviy muammolar, urush-tinchlik masalalari turli salbiy holatlarni keskin rad etish, ularni yuksak madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan siyosatni qaror toptirish yo'li bilan bartaraf etish-O'zbekiston xalqaro siyosatining bosh yo'lidir. U ijtimoiy tuzumi, g'oyasi va taraqqiyot yo'lidan qat'iy nazar, tinch-totuv yashash, o'zaro manfaatli hamkorlik tarafdiridir.

O'zbekiston o'z mustaqilligining tarixan qisqa davrda jahon siyosatiga salmoqli ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Jahon siyosati yo'naliishlarida uning o'ziga xos tamoyillari, yondashish uslubi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini yo'naltirib turishdagi uslubi mavjud.

«Mustaqillik yillarida tashqi siyosatimizni yo'lga qo'yishning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi va izchil amalga oshirildi. Bu tamoyillar avvalo O'zbekistonning o'z tashqi siyosatini teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik negizida qurishga intilayotganimizdan kelib chiqadi. Biz biron bir davlatning ta'sir doirasiga kirmaymiz degan qoidaga qat'iy amal qilib kelmoqdamiz va bundan buyon ham o'z milliy davlat manfaatlarimizga asoslanib, mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar, dunyoning barcha mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarni mustaqil belgilayverishga ahd qilganmiz»-deb yozadi Islom Karimov.

O'zbekiston jahon hamjamiyatidan munosib o'rinni olishga intilmoqda. Eshiklarimiz dunyo uchun ochiq va dunyo eshiklari ham biz uchun ochiq bo'lishiga harakat qilayapmiz. Davlatlarning obro'-e'tiborlari ham bugungi kunda jahon hamjamiyatida iqtisodiy, harbiy qudrat bilan birlgilikda mamlakatdagi demokratik jarayonlarning xarakteri bilan belgilanmoqda. Shu jihatdan olganda, O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar jahon hamjamiyatida mustaqil o'rinni egallashga va milliy manfaatlarimiz asosida tashqi siyosat yuritishga imkoniyat yaratmoqda.

O'zbekiston faol tashqi siyosat yuritish bilan xalqaro huquqning teng huquqli a'zosini sifatida o'z davlatchilagini qurishi, mustaqillikni mustahkamlashi, dunyoda o'zining munosib o'rnini egallashi lozim edi. «O'zbekiston yo'li-jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'li» shiori ilgari surildi.

Mustahkam xavfsizlik, izchil iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi turmush darajasini ko'tarish, konstitutsion tuzum asoslarini mustahkamlash, millatlar ahilli, xalqlar do'stligi, fuqarolar erkinligi va haq-huquqlarini muhofaza qilish, tashqi siyosatning asosiy maqsadlaridir. Ana shu maqsadlarni ro'yobga chiqarish, jahon hamjamiyati bilan tabiiy aloqalarni yo'lga qo'yish istagida tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatning milliy mexnaizmlari yaratildi. O'zbekiston va Turkiya Respublikalari hamkorlik aloqalarining 1991-2024 yillarda rivojlanishini ikki bosqichga bo'lib tahlil qilindi: 1-bosqich: 1991-2016 yillar, 2-bosqich: 2017 yildan boshlanadi.

Birinchi bosqich 1991-2016 yillarda ikki davlat o'rtasida turli sohalarda hamkorlik yo'lga qo'yildi va ikki tomonlama o'zaro manfaatli shartnoma va bitimlar imzolandi. Ammo, Turkiyaning ba'zi tijorat shirkatlari shartnoma shartlarini bajarmaganliklari, O'zbekistonning siyosiy muxolifat yetakchisini Turkiyadan deportatsiya qilish masalasi hamda O'zbekistonda

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

faoliyat yuritgan o'zbek-turk litseylarining diniy tashkilotlarga aloqadorligi kabi sabablar tufayli ikki davlat munosabatlari sovuqlashdi. O'zbekiston va Turkiya munosabatlari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ldi. Masalan, ushbu yillarda Turkiya hukumati rahbarlari tomonidan rasmiy tashriflar amalga oshirilgan bo'lsa-da, asosan xalqaro doiradagi anjumanlarda uchrashdilar. Bu davrda O'zbekiston va Turkiya o'rtasida diplomatik va siyosiy munosabatlarida chekinish ko'zga tashlanadi. Savdo, tranzit va boshqa iqtisodiy munosabatlar saqlangan bo'lsada, ammo boshqa sohalardagi aloqalar pasayganligi hamda tizimli bo'lмаганligini ko'rsatadi.

Ikkinci bosqich 2017 va undan keyingi yillarda ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi muntazam uchrashuvlar va amalga oshirilgan davlat tashriflari natijasida ikki davlat o'rtasida barcha sohalarda yangi "Strategik hamkorlik" darajasiga ko'tarilganligi bilan asoslash mumkin. O'zbekiston va Turkiya Prezidentlarining davlatlararo rasmiy uchrashuvlari, davlat tashriflari va yuqori darajadagi siyosiy muloqotlari 1991-yil 16-19 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Turkiyaga rasmiy tashrifi bilan boshlandi. 1992-yil 28-aprelda Toshkent shahrida Turkiya elchixonasi ochildi. O'zbekiston rahbari 1992 yil 29 iyun - 1 iyul, 1994-yil iyun va 1997-yil noyabr oyalarida ham Turkiyaga rasmiy tashrif buyurdi. O'z navbatida Turkiya Prezidenti Turgut O'zal 1993-yil 6-aprelda, Turkiya Bosh vaziri T.Chiller 1995-yil 8-iyulda va Prezident S.Demirel 1996-yil 7-mayda hamda 1999 yil 15-mart oyida O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdilar. Ushbu ikki mamlakat rahbarlarining amalga oshirgan davlat tashriflari natijasida davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda rivojlanishiga va huquqiy asoslarini shakllanishiga xizmat qildi.

1994-yil iyulida O'zbekistonda Respublika hukumati huzuridagi Ittifoq tashqi savdo muxtor vazirligi tashkil etildi. Ushbu organ turli tashkilotlar va muassasalarni eksport masalasini hal etishga qaratilgan edi.

1992-yilda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil topdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida diplomatiya, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashning davlat tizimi yaratildi. Tashqi aloqalar sohasi uchun milliy kadrlar tayyorlash maqsadida 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi tashkil topdi.

1998-yil 30-aprelda Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Uning asosiy maqsadlari:

1.O'zbekiston iqtisodiyotga chet el investitsiyasini jaib etgan holda iqtisodiy taraqqiyotga erishish.

2. Xorijiy intellektual, moliyaviy moddiy resurslar va horijiy boshqaruv sistemasi va texnologiyasini jaib etish va qo'llash edi.

2-chaqiriq Oliy Majlis 2 sessiyasida (2000 yil may oyi) O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

Bundan tashqari 1996-yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida (1995 yil) va boshqa shu kabi muhim hujjatlar qabul qilindi. Mana shunday nazariy va amaliy qoidalari natijasi o'laroq, bugungi kunda davlatimiz mustaqilligini 170 ga yaqin mamlakat tan oldi. Ularning 146 nafari bilan diplomatik munosabatlар o'rnatilgan. O'zbekistonda 43 davlat va 70 ta yirik xalqaro tashkilotlarning missiyalari ankredetatsiya qilingan. O'z navbatida, O'zbekiston 40 dan ortiq yirik tashkilotlar hamda 500 dan ortiq xalqaro huquq sub'ektlari bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston fuqarları tomonidan horijiy davlatlarda 180 ta korxona va vakolatxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston 34 ta davlat bilan «Investitsiyalarni himoyalash va rag'batlantirish to'g'risida»gi shartnomani imzolagan.

Shunday qilib, hozirgi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o'rin egalladi va Markaziy Osiyodagi yetakchi davlat sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday obro'-e'tibor tarixiy davlatchiligidimiz, ma'naviyatimiz va oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga hamohangdir.

O'zbekiston o'zining tinchliksevar, barqarorlikka asoslangan tashqi siyosatini izchil davom ettiraveradi. Buning uchun yetarli siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy imkoniyatlari mavjud.

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

Nosirova S.S. Nasimov D.B. AJDODLAR MEROSI - MATO HUNARMANDCHILIK NA'MUNALARINING ASRAB AVAYLASHNING DOLZARBLIGI	504
Kazakova Marifat Dexkanovna. OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJIDA BUXOROLIK AYOL OLIMALARNING O'RNI (BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI MISOLIDA)	508
Qurbanova Dilnora Nuriddin qizi. TARIX FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARASI	510
Nosirova Yulduz O'ktam qizi. JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILMIY-PEDAGOGIK QARASHLARI - ZAMONAVIY O'QUVCHILARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI TARBIYALASH VOSITASI.....	511
D.Elova, Abdullayeva N. ME'MORCHILIK SAN'ATIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR (IX-XII ASRLARDA).....	513
Nilufar Jumayeva Ahmadovna, Shahlo Ortikova Salim qizi. ABU NASR FAROBIYNING ILMIY MEROSI VA UNING JAHON TARIXIDA TUTGAN O'RNI.....	515
Shuxrat Yodgorovich Qudratov, Rashidov Xurshid. O'ZBEKISTON-TURKIYA: TARIXAN TARKIB TOPGAN ALOQALAR.....	517
Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li, Raxmonov Zafar Zoir o'g'li. QADIMGI BAQTRIYA DAVLATCHILIGI XUSUSIDA AYRIM MASALALAR.....	519
Sobirov Umid Baxtiyorovich. O'ZBEKISTONDA BUXORO TARIXINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI	521
منش ک اعظمی سعیده ساماند یان ف رهندگی پاپ تخت عنوان ب ۴ ب خاراند قش ب رسی	523
Меликов Н.А. САМАРҚАНД ВОҲАСИНИНГ АСОСИЙ СУВ ТАРМОҚЛАРИ ВА СУФОРИШ ИНШОАТЛАРИ.....	531